



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiov Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
Maqsudova Gulnoz Olimovna	
Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
Sharipova Muhabbat Erkinovna	
Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
Safarova Madina Azamat qizi	
Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
Аскарова Гулрух Оринбасаровна	
Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI IJODIY FIKRLASHINI O'ZIGA XOS JIHATLARI

Gafurova Shoxista Erali qizi
 Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashining o'ziga xos xususiyatlari, uning psixologik-pedagogik asoslari hamda rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ salohiyatini aniqlash va baholashda Torrensning ijodiy fikrlash testidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash darajalari aniqlanib, ularni rivojlantirishga qaratilgan amaliy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, kreativlik, boshlang'ich ta'lim, kreativ kompetensiya, Torrens testi, o'quvchi shaxsi, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the distinctive characteristics of creative thinking among primary school students, its psychological and pedagogical foundations, and developmental patterns. The study also explores the possibilities of using the Torrance Tests of Creative Thinking to identify and assess students' creative potential. Based on the research findings, the levels of creative thinking among primary school students were evaluated, and practical pedagogical recommendations aimed at fostering their creative development were proposed.

Key words: creative thinking, creativity, primary education, creative competence, Torrance Test, student personality, innovative education, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье проанализированы особенности творческого мышления учащихся начальных классов, его психолого-педагогические основы и закономерности развития. Также рассмотрены возможности использования теста творческого мышления Торренса для выявления и оценки креативного потенциала учащихся. На основе результатов исследования определены уровни развития творческого мышления младших школьников и разработаны практико-ориентированные педагогические рекомендации по его дальнейшему развитию.

Ключевые слова: творческое мышление, креативность, начальное образование, креативная компетентность, тест Торренса, личность учащегося, инновационное образование, педагогические технологии.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va innovatsion taraqqiyot sharoitida shaxsning yangi g'oyalar yaratishi, muammolarga nostandart yondashuvi hamda kreativ yechimlar topa olishi muhim kompetensiya sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf davri bolalarda ijodiy fikrlashning shakllanishi va rivojlanishi uchun eng qulay bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu yosh davrida bolalarning qiziquvchanligi, tasavvuri, erkin fikrlashi va yangilikka intilishi yuqori darajada namoyon bo'ladi. Mazkur omillar esa ularning kelgusidagi intellektual va ijodiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

M.A. Sattorovanning fikricha, ijodiy fikrlash – yangi va original g'oyalarni rivojlantirish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu qobiliyat o'yin, tajriba, qurilish va san'at faoliyati orqali shakllanadi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyasi bolalarning analitik fikrlashi va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatiga bog'liqdir^[9].

Sh.K. Urakovaning tadqiqotlarida pedagogikada ijodiy kompetensiya, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va mohiyati, unga nisbatan kompetensiyaviy yondashuvlar hamda talabalarda ijodiy kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan^[13].

L.K. Narimbayevaning ta'rifiga ko'ra, ijodiy kompetensiya pedagogning subyektivligini ochish jarayonida, uning uzluksiz ijodiy ta'limi asosida tashqi boshqaruv ta'sirlaridan foydalanish orqali doimiy ravishda murakkablashib boradigan jarayondir [6].

L.N. Abdibekovanning tadqiqotlarida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish muhimligi ta'kidlangan. Bunda faoliyat turlarining bolalarning individual xususiyatlariga mos tarzda tanlanishi, shuningdek, jamoaviy faoliyatlar va mavzu asosida guruhlarda ishlash bolalarda ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga yordam berishi ko'rsatib o'tilgan [2].

Ijodkorlik tushunchasiga psixologik jihatdan ham turlicha ta'riflar berilgan. D.I. Ochilovning fikricha, ijodkorlik inson tafakkurining eng yuqori bosqichi bo'lib, yangi g'oyalar, konsepsiyalar, mahsulotlar va muammolarga noodatiy yechimlar yaratish jarayonini ifodalaydi. Psixologiya fanida ijodkorlik ko'pincha shaxsning kognitiv, emotsional va motivatsion tizimlari o'zaro uyg'unlashgan murakkab faoliyati sifatida talqin etiladi [7].

L.S. Vygotskiy ta'kidlashicha, bola o'yin jarayonida o'zining real imkoniyatlaridan yuqoriroq darajada fikrlaydi va aynan o'yin orqali kelajakdagi intellektual hamda ijodiy rivojlanishining poydevorini yaratadi. Shu bois, didaktik o'yinlar bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi [14].

Pedagogik psixologiyada ijodiy fikrlash masalasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, J.P. Gilford o'z modellarida ijodkorlikni divergent fikrlash bilan bog'lab, yangicha g'oyalar yaratishni aqliy jarayon sifatida izohlaydi. U divergent fikrlashni "fluency" (fikrlar oqimi), "flexibility" (moslashuvchanlik), "originality" (originallik) va "elaboration" (rivojlantirish) komponentlari orqali ifodalaydi [3].

E.P. Torrens ishlanmalarida ijodiy fikrlash muammoga nisbatan sezgirlik, taxmin qilish, sinash va natijalarni tahlil qilish jarayoni sifatida ta'riflanadi. Torrens ijodiy fikrlashni muammolar, kamchiliklar va bilimlardagi bo'shliqlarga sezgir bo'lish jarayoni deb belgilagan. Bu jarayon taxmin qilish, farazlarni shakllantirish, ularni sinash va o'zgartirish hamda natijalarni taqdim etishni o'z ichiga oladi [10]. Unga ko'ra, ijodiy fikrlash to'rtta asosiy o'lchamni qamrab oladi:

1. Ko'p sonli g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati.
2. G'ayrioddiy yoki noyob g'oyalarni yaratish qobiliyati.
3. Mahsulotlarga tafsilotlarni kiritishda qat'iylik.
4. Turli xil g'oya toifalarini ishlab chiqish qobiliyati [11].

J. Dyui esa ta'limda tajribaga asoslangan fikrlash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni ijodiy tafakkurning asosi sifatida ko'radi [12].

N.E. Nurjanah, E. Yetti hamda M.S. Sumantrilarning fikricha, ijodiy fikrlash qobiliyati maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar va strategiyalarni keng qamrovli tahlil qilganlar. Tadqiqotchilar ushbu jarayonni uchta muhim yo'nalishga ajratib ko'rsatadilar va bu yo'nalishlar bolalarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

U.A. Abdusattorovanning fikricha, ijodiy fikrlash insonning mavjud holatga noodatiy yondashuvi, yangilik yaratishga bo'lgan intilishi va muammolarga ijodiy yechim topish qobiliyatidir [1].

Shuningdek, "ijodiy fikrlash" va "ijodkorlik" tushunchalarini farqlash zarur. Ko'pgina mualliflar ularni o'xshash tushunchalar sifatida izohlaydilar, biroq bu aynan bir xil tushunchalar emas. Ijodiy fikrlash psixik jarayon bo'lsa, ijodkorlik subyektning o'ziga xos sifati bo'lib, u ijodiy fikrlash qobiliyatida namoyon bo'ladi va uning subyektiv, shaxsiy tomoni sifatida qaraladi. Demak, ijodkorlik ijodiy fikrlashning elementi hisoblanadi, biroq u bilan aynan bir xil tushuncha emas [4].

Olimlar nazariyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijodiy fikrlash jarayoni uzluksiz, faol hamda kreativ xarakterga ega bo'lib, ayniqsa muammo yoki ilgari duch kelinmagan vaziyatlar yuzaga kelganda yanada kuchliroq namoyon bo'ladi [8]. Shu asosda aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'quvchilar uchun muammoli vaziyatlarni yaratish, yangicha yondashuvni talab etuvchi topshiriqlarni berish hamda ularni mantiqiy bog'lanishlarni mustaqil ravishda aniqlashga yo'naltirish ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Bunday faoliyat jarayonida o'quvchi yangi vazifalarni bajarish davomida analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni mustaqil qo'llaydi. Natijada esa ijodiy fikrlash tabiiy ravishda shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotga Ohangaron tumani 32-son umumiy o'rta ta'lim maktabining 87 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb qilindi. Chunki boshlang'ich maktab yoshi bolaning intellektual, shaxsiy va ijodiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni ilgari surish va o'z fikrini erkin ifodalash kabi ijodiy fikrlashning asosiy komponentlari shakllana boshlaydi.



Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 6-10 yosh davri bolalarning tasavvuri, qiziquvchanligi va kreativ salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan davr sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini o'rganish maqsadida Torrens ijodiy fikrlash testining maqsadlariga amal qilindi. Torrensning ijodiy fikrlash testi (Torrance Tests of Creative Thinking - TTCT) dunyoda ijodiy fikrlashni o'lchash uchun eng ko'p qo'llaniladigan metodikalardan biridir. Test amerikalik psixolog Ellis Paul Torrance tomonidan 1966-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib kattalargacha bo'lgan shaxslarning kreativ salohiyatini baholash uchun qo'llaniladi.

Torrens testining maqsadi

Test quyidagi ijodiy fikrlash komponentlarini aniqlashga xizmat qiladi:

1. Ravonlik (Fluency) - g'oyalar soni.
2. Moslashuvchanlik (Flexibility) - turli xil g'oyalar ishlab chiqish qobiliyati.
3. Originallik (Originality) - noodatiy va noyob fikrlar.
4. Takomillashtirish (Elaboration) - g'oyani batafsil rivojlantirish qobiliyati.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda tadqiqot turli shakllarda amalga oshirildi. Ular:


1. Verbal (og'zaki) shakl.
 2. Figurativ (rasmli) shakl.
 3. Verbal (og'zaki) shakl
- A) Savol berish. Bolaga rasm ko'rsatiladi va u rasm haqida iloji boricha ko'p savollar tuzishi kerak. Masalan: "Bu bola qayerga ketyapti?", "Nega u xafa?", "U nima haqida o'ylayapti?". Bolaning savollar soni, savollarning xilma-xilligi hamda savollarning noodatiyligiga qarab baholanadi.
- B) Oqibatlarni aytish. "Agar odamlar uchishni bilsa, nima bo'lardi?" Bola imkon qadar ko'p javob beradi. Masalan: "Mashinalar kamayardi", "Odamlar tez sayohat qilardi", "Yangi sport turlari paydo bo'lardi" va hokazolar.
- C) Noodatiy foydalanish. "Qalamdan yana qanday foydalanish mumkin?" Masalan: "Baraban tayoqchasi", "O'yinchoq", "Gul uchun tayanch", "Kitob belgilagichi".

Figurativ (rasmli) shakl


Figurativ (rasmli) shakl boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayniqsa qulay hisoblanadi.

1-topshiriq. Rasmni yakunlash.

Bolaga tugallanmagan shakl beriladi. Masalan:



Bola yuqoridagi rasmdan istalgan rasm yaratadi: Quyosh, soat, futbol to'pi, sayyora. 2-topshiriq. Shakllardan rasm yaratish. Turli geometrik shakllardan beriladi. Masalan:



Bola ulardan yangi obraz yaratadi: Robot, uy, kosmik kema, hayvon. Quyidagi baholash mezonida o'quvchilar baholandi.

1-jadval: Baholash mezonlari

Ko'rsatkich	Mazmuni
Ravonlik	Javoblar soni
Moslashuvchanlik	Turli kategoriyadagi javoblar soni
Originallik	Kam uchraydigan javoblar
Takomillashtirish	Detallar va izohlarning boyligi

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash darajasini aniqlash maqsadida Torrensning ijodiy fikrlash testidan foydalanildi. Tadqiqotda jami 87 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Olingan natijalar asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlash darajalari yuqori, o'rta va quyi toifalarga ajratildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 87 nafar o'quvchidan 27 nafari (31,0 %) yuqori darajadagi ijodiy fikrlash ko'rsatkichlariga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu guruhdagi o'quvchilar topshiriqlarni bajarishda originallik, fikrlarning xilma-xilligi va yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini namoyon etdilar. Ularning javoblarida noodatiy yondashuvlar, keng tasavvur hamda muammolarga kreativ yechim topish ko'nikmalari kuzatildi.

Tadqiqot ishtirokchilarining asosiy qismini tashkil etgan 39 nafar o'quvchi (44,8 %) o'rta darajadagi natijalarni qayd etdi. Mazkur o'quvchilar topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajargan bo'lsalar-da, ularning javoblarida ayrim hollarda stereotip fikrlash elementlari uchradi. Shu bilan birga, ushbu guruh vakillarida ijodiy salohiyat mavjud bo'lib, uni maxsus pedagogik metodlar va ijodiy topshiriqlar orqali yanada rivojlantirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Quyi darajadagi ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari 21 nafar o'quvchida (24,2 %) kuzatildi. Ushbu guruhdagi o'quvchilar tomonidan berilgan javoblar soni kamroq bo'lib, fikrlarning takrorlanishi va an'anaviy yondashuvlarning ustunligi bilan tavsiflandi. Bu holat mazkur o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik ta'sirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval: So'rovnomalar natijalari

Ijodiy fikrlash darajasi	O'quvchilar soni	Foiz (%)
Yuqori	27	31,0
O'rta	39	44,8
Quyi	21	24,2
Jami	87	100

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotda ishtirok etgan o'quvchilarning aksariyati (75,8 %) o'rta va yuqori darajadagi ijodiy fikrlash ko'rsatkichlariga ega. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ salohiyatning shakllanayotganligini va mazkur yosh davri ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay bosqich ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, quyi darajadagi ko'rsatkichga ega o'quvchilar ulushining mavjudligi ta'lim jarayonida ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati hamda interfaol metodlardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini muntazam ravishda diagnostika qilish va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning kreativ salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, STEAM texnologiyalari hamda kreativ topshiriqlardan muntazam foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning fikrlash mustaqilligi, tasavvur doirasi va innovatsion g'oyalar yaratish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini muntazam diagnostika qilish va uni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni yanada takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdusattorova U.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik qonuniyatlarini // Maktabgacha va maktab ta'limi. Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal. - Elektron nashr. - 2025. - 5-iyun. - B. 403-405.
2. Абдибекова Л.Н. Развитие творческих способностей у детей дошкольного возраста // [Название издания не указано]. - С. 4-6.
3. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. - New York: McGraw-Hill, 1967. - 538 p.
4. Matyokubova Z.R. Kichik maktab yoshidagi bolalarni tanqidiy va ijodiy fikrlash muammolari // Zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxs rivojlanishining dolzarb muammolari: axborot, raqamli texnologiyalar va tarbiya mexanizmlari: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Toshkent, 2025. - B. 208-212.
5. Nurjanah N.E., Yetti E., Sumantri M.S. Developing creative thinking in early childhood: A comprehensive review of innovative research // European Journal of Educational Research. - 2024. - Vol. 13, № 3. - P. 1303-1319. - DOI: 10.12973/eu-jer.13.3.1303.
6. Наримбаева Л.К. Развитие творческой компетентности педагога дошкольного образования // European Science. - 2021. - № 1 (57). - С. 53-57.
7. Ochilova D.I. Ijodkorlikning psixologik va pedagogik asoslari // Maktabgacha ta'limda sifat va samaradorlik, rivojlanish istiqbollari: muammo va yechimlar. - B. 127-133.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: учеб. пособие. - СПб.: Питер, 2007. - 713 с.
9. Sattorova M.A. Scientific-methodical bases of creative thinking, problem solving and creative competences in children through STEAM technologies in preschool education // International Journal of Artificial Intelligence. - 2025. - Vol. 5, Issue 12. - P. 873-877.
10. Torrance E.P. A longitudinal examination of the fourth grade slump in creativity // Gifted Child Quarterly. - 1968. - Vol. 12, № 4. - P. 195-199. - DOI: 10.1177/001698626801200401.
11. Torrance E.P. Predictive validity of the Torrance Tests of Creative Thinking // Journal of Creative Behavior. - 1972. - Vol. 6, № 4. - P. 236-262. - DOI: 10.1002/j.2162-6057.1972.tb00936.x.
12. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. - Princeton, NJ: Personnel Press, 1966.
13. Urakova S. The essence of creative competence in pedagogy and modern approaches // International Journal of Pedagogics. - 2024. - Vol. 4, № 2. - P. 122-127. - DOI: 10.37547/ijp/volume04issue02-20.
14. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.